Цифровизация страховых претензий является основным механизмом развития страховой отрасли....	835
<b>Узакова Камола Бехзодовна</b> , ассистент кафедры	
O'zbekiston va MDH mamlakatlari soliq tizimining qiyosiy tahlili .....	839
<b>Bobomurotova Manzura Panji qizi</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Soliq ma'muriyatçiligi tizimida samarali soliq nazoratini tashkil etish masalalari.....	845
<b>Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li</b> , <b>Bobomurotova Manzura Panji qizi</b> , mustaqil tadqiqotchilar	
Banklarda aktivlar portfellarining zamonaviy holati .....	851
<b>Murodova Mohigul Chori qizi</b> , katta o'qituvchi	
Oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishslash zanjirida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	855
<b>Yusupov Muxiddin Soatovich</b> , PhD	



# SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TIZIMIDA SAMARALI SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISH MASALALARI



**Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li**  
Toshkent moliya instituti o'qituvchisi,  
mustaqil tadqiqotchi



**Bobomurotova Manzura Panji qizi**  
Toshkent moliya instituti o'qituvchisi,  
mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada soliq ma'muriyatchiligini isloh etish, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, samaradorligini oshirish va rivojlanishi bo'lgan «raqamli iqtisodiyot»ni shakllantirish, shuningdek, soliq nazorati sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma hamda standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni jadallashtirish aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** Soliq ma'muriyatchiligi, soliq nazorati, soliq tekshiruvlari, kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi, soliq audit, soliq monitoringi.

**Abstract:** In this scientific article, the reform of tax administration, the further improvement of the activities of state tax service bodies, the formation of a "digital economy" with the purpose of increasing their efficiency and development, as well as the implementation of universally recognized international norms and standards in the field of tax control into national legislation acceleration of doing is reflected.

**Key words:** Tax administration, tax control, tax audits, a cameral (in-house) tax inspection, an on-site tax inspection, an audit of tax operations, tax monitoring.

**Аннотация:** В этой статье исследуется реформирования налогового контроля, дальнейшего совершенствования и повышения эффективности деятельности государственных органов налоговой службы, формирования «цифровой экономики», являющейся логическим продолжением и развитием использования современных информационно коммуникационных технологий, а также ускорения имплементации в национальное законодательство общепринятых международных норм и стандартов в сфере налогового контроля.

**Ключевые слова:** Налоговая администрация, налоговый контроль, налоговых проверок, камеральная налоговая проверка, выездная налоговая проверка, налоговый аудит, налогового мониторинга.

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining to'sqiniksiz amalga oshirilishini ta'minlash, biznes yuritish uchun qulay bo'lgan sharoitlar yaratish va yurtimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlar mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishga hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro miqyosdagi reytingiga ijobiy ta'sir ko'satmoqda. Yurtboshimiz tomonidan ta'kidlanganidek, O'zbekistonda o'zining katta investitsion loyihalarini amalga oshirish niyatida bo'lgan investorlar uchun mamlakatimizni jozibali qilish maqsadida soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz kerak. “2019-yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g'oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo'llashni ko'zda tutadi, shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin”<sup>1</sup>.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so'zi, 2017 yil 28 dekabr.



## Soliq nazorati



Soliq to‘lovchilarini, soliqqa tortish ob‘ektlarini hamda soliqqa tortish bilan bog‘liq bo‘lgan ob‘ektlarini hisobga olishning, shuningdek soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioxay etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat bo‘lib, u soliq idoralari tomonidan soliq to‘lovchilar, soliqqa tortish ob‘ektlari hamda soliqqa tortish bilan bog‘liq ob‘ektlarni, byudjet hamda davlatning maqsadli jamg‘armalariga kelib tushadigan tushumlar hisobga olinishi, soliq tekshiruvlari vositasida hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi



Soliq agentlari hamda soliq to‘lovchilar tomonidan soliq haqidagi qonunchilikka rioxay qilinishi ustidan vakolatlidormalarning nazorat qilishga oid bo‘lgan faoliyati

**1-rasm:** Qonun-hujjatlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi<sup>2</sup>

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonunida soliq nazorati va soliq tekshiruvlari bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan davlat soliq xizmati organlarining huquqlari va majburiyatlar, ularning boshqa davlat organlari hamda tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligi va soliq idoralari mas‘ul xodimlarining javobgarligini belgilovchi qoidalar ko‘zda tutilgan. Mamlakatimizda davlat soliq xizmati idoralariaga asosiy vazifalardan biri sifatida soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish belgilab qo‘yilgan<sup>3</sup>.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma‘muriyatichiligidan tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida davlat soliq xizmati idoralari faoliyati tizimini isloh qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida soliq nazorati olib borishning zamonaviy shakllarini joriy qilish nazarda tutilgan. Mazkur Farmonga asosan soliq idoralari va “qonunlarga itoatkor - halol soliq to‘lovchilar” o‘rtasida soliqqa tortishga oid masalalarni hal etishda ko‘p tomonlama yordamlashgan holda kengaytirilgan axborot almashishni ko‘zda tutuvchi soliq nazorati o‘tkazishning zamonaviy shakllaridan biri bo‘lgan soliq monitoringi joriy etildi.

Soliq tizimida investitsion faollikni hamda ishbilarmonlikni oshirish, raqobatning sog‘lom muhitini shakllantirish, ta’sirchan hamda samaraga qaratilgan soliq nazoratini yo‘lga qo‘yish orqali xufiyona iqtisodiyotga barham berish kabi, soliqqa oid amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali bo‘lishiga to‘sqinlik qilayotgan ba’zi bir kamchilik hamda muammolar ham mayjud ediki, ularni bartaraf etish bugungi kunimizning dolzarb o‘z echi-minni kutayotgan va kechiktirib bo‘lmaydigan masalalaridan biri bo‘lib, ularga munosib yechim topish davlat va jamiyat manfaatlari uchun birdek ijobji xizmat qilishi bilan muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli, soliq nazoratining birmuncha eskirgan uslubi hamda prinsiplariga asoslangan soliq idoralari faoliyatini tashkil etilishi ushbu idoralar oldiga qo‘yilgan muhim yangi vazifalarni hal etish, shu jumladan, soliqqa tortiladigan bazani yanada kengaytirish hamda soliqlar va yig‘imlarning yig‘iluvchanligi oshirilishini ta’minalash imkonini bermaganligi natijasida yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi doirasida soliq ma‘muriyatichiligi hamda soliq nazorati bo‘yicha amaliyotga yangicha tizim joriy qilindi.

### O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida ko‘zda tutilgan soliq nazorati shakllari:



**2-rasm:** Soliq nazorati shakllari<sup>4</sup>

2 O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni va Soliq kodeksida “Soliq nazorati” haqida ko‘zda tutilgan qoidalar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

3 Matn O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni 4, 5, 6 va 13-moddalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

4 O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-599-sonli Qonuni bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 136-moddasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Ma'lumki, "Soliq tekshiruvlari soliq hamda yig'imiarni to'lovchilar, shuningdek, soliq agentlari faoliyatida ular tomonidan soliqlar to'g'risidagi qonunchilikka amal qilinishi ustidan nazorat olib borish maqsadida o'tkazilib, u soliq to'lovchi to'g'risidagi soliq idorasida mavjud bo'lgan axborot hamda ma'lumotlarni tahlil qilinishi va o'rganilishi asosida amalga oshiriladi"<sup>5</sup>.



3-rasm: Soliq tekshiruvi turlari<sup>6</sup>

Shu o'rinda aytish joizki, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham ta'sirchan tarzdagi jamoatchilik nazoratini olib borishning tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda raqamlashgan holdagi texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish orqali jamoatchilik nazoratini yana ham kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Biziningcha, samarali soliq nazoratini ta'minlashda sayyor soliq tekshiruvlarini jamoatchilik nazorati asosida "Soliq mobil" ilovasi orqali tashkil etilishida taraqqiyot strategiyasida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishda ma'lum bir ijobjiy ma'noda xizmat qilmoqda.

Yurtimizda soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirilishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan tashkil etilayotgan uchrashuvlari ham ijobjiy xizmat qilmoqda, desak noto'g'ri bo'limasa kerak. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgust kuni yurtimiz tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda Prezidentimiz beshta asosiy yo'nalishni ko'rsatib o'tib, ularning har biri bo'yicha ko'plab tashabbuslarni ilgari surdi. Beshinchi yo'nalishda tadbirkorlar faoliyatini nazorat qilish va ularni javobgarlikka tortish masalalariga to'xtalib o'tildi. Avvalo, tadbirkorlarga nisbatan yangi javobgarlik va jazo choralarini joriy etishga 3-yillik moratoriyl e'lon qilindi. Unga ko'ra 26 ta idoraning takrorlanuvchi nazorat funksiyalari bekor qilindi. Davlatimiz rahbari soliq tekshiruvlariga oid jarimalar turi ko'pligi va og'irligi bo'yicha juda ko'p murojaatlar bo'lganiga e'tibor qaratdi. Misol uchun, oyiga o'rtacha 1 million so'm soliq to'laydigan kichik tadbirkorlarga 5 milliondan 10 million so'mgacha moliyaviy jarima qo'llanmoqda. Ya'ni kichik tadbirkorlar uchun ham, yirik korxonalar uchun ham jazo bir xildir. Davlatimiz rahbari barcha turdagи tekshiruvlar Biznes-ombudsman tomonidan muvofiqlashtirilishi, jarimalar miqdori tadbirkor to'layotgan soliq miqdoridan oshmasligi kerakligini ta'kidladi. Tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga asossiz aralashuvlarning oldini olish, nazorat qiluvchi organlarning mas'uliyatini oshirish va faoliyati ochiqligini ta'minlash maqsadida yurtboshimiz tomonidan "Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazishni muvofiqlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror imzolandi.

2023-yil 1-yanvardan boshlab nazorat qiluvchi organlarga "Yagona davlat nazorati" axborot tizimidagi davlat nazorati funksiyalari reestriga kiritilmagan funksiyalar bo'yicha tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazish taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida davlat nazoratini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror "Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobini to'ldirish tartibi to'g'risida"gi nizom ham tasdiqlandi. Unga ko'ra endilikda tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobi faqat elektron shaklda yuritiladi. Qaror asosida nazorat qiluvchi organlar mansabdar shaxslarini tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom hamda nazorat qiluvchi organlarning xavfni tahlil etish tizimlariga qo'yiladigan minimal talablar ham tasdiqlangan.

Mamlakatimizda soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddallashtirish va soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi<sup>7</sup>. Bugungi kunda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqr tahlili, ya'ni jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotganini ko'rsatmoqda. Shu boisdan bugungi kun bizdan davlatimizni yanada barqaror va jadal

5 Matn O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritilgan Soliq Kodeksining 137-moddasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

6 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritilgan yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi 137-moddasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulknari tomonloma himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-son Farmoni.



sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish hamda ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda<sup>8</sup>.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Biznes muhitini yanada yaxshilash biz uchun eng muhim masalalardan biri bo'lib qoladi. Shu boisdan jahon bankining "Biznes yuritish" reytingida eng yaxshi 50 ta mamlakat qatoriga kirish bo'yicha barcha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni qabul qildik"<sup>9</sup>.

Bugungi kunda ham soliq ma'muriyatichiligi sohasida, jumladan, soliqlar va yig'imlarni yig'ish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliq to'lovchilarning soliqlarni to'lash bo'yicha o'z konstitutsiyaviy burchini ixtiyoriy bajarishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy madaniyatini oshirish yuzasidan bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirish yurtimiz va xalqimiz farovonligi uchun foydadan xoli bo'lmaydi. Soliq sohasiga oid yangi qabul qilinayotgan bir nechta normativ-huquqiy hujjatlarda mamlakatimizda davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo'nalishlari etib soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy usublarini joriy etish belgilangan. Soliq ma'muriyatichiligi va soliqqa tortishning zamonaviy usullarini, soliqlarning to'liq yig'iluvchanligi va byudjetga o'z vaqtida tushishi ustidan samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali soliq-byudjet siyosatini yanada takomillashtirish, byudjet jarayoni shaffofligi darajasini oshirish, respublika soliq organlari faoliyatini, jumladan, ularning soliq to'lovchilar va davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish, soliq nazoratining zamonaviy shakl va usullarini joriy etish bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirish jarayonlarini muntazam tadqiq etib borish dolzarb hisoblanadi.

V. Panskov fikricha "Soliq ma'muriyatichiligi – bu soliqlarni rejalashtirish, soliqlar va yig'imlar tizimini shakllantirish va takomillashtirish, soliq to'g'risidagi qonunlar hujjatlariga rioya etilishi va soliq munosabatlari ishtiroychilarining majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish bo'yicha davlat va mahalliy organlarini boshqarish faoliyatidir", deya ta'riflagan<sup>10</sup>.

I. Aleksandrov ta'kidlashicha "Soliq ma'murchiligi soliq organlari, moliyaviy organlarning soliqqa tortish sohasidagi boshqaruv faoliyatidir".


D. Meshkova tomonidan "Soliq ma'murchiligi deganda birinchi navbatda fiskal organlari bilan majburiy shaxslarning jarayonlar va protsessual aspektlar bo'yicha o'zaro munosabatlari tushuniladi".

A. Sherbakov tomonidan esa "Soliq ma'murchiligining mohiyati soliq organlari va soliq to'lovchilarning soliqlarni undirishda yuzaga keladigan ishlab chiqarish va xo'jalik shakllaridagi munosabatlarini harakterlash bilan belgilanadi".

Sayyor soliq tekshiruvi soliq organi rahbarining buyrug'i asosida o'n kundan ko'p bo'limagan muddatda o'tkaziladigan tekshiruv turi hisoblanadi, soliq tekshiruvini o'tkazish jarayonida hisobga olish hujjatlarining, tovar-moddiy qimmatliklar va pul mablag'lari harakatining, shuningdek, soliq to'lovchining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa axborotning tahlili o'tkaziladi. Shuningdek, ushbu tekshiruvda soliq organlari profilaktika tadbirlarini va xronometraj kuzatuvlarini amalga oshirishga, nazorat-kassa texnikasi va to'lov terminallari qo'llanilishini tekshirishga va soliq nazoratining boshqa tadbirlarini o'tkaziladi hamda xolisona amalga oshirish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlar olish zarurati yuzaga kelgan hollarda ham sayyor soliq tekshiruvi tayinlanishi mumkin.

Sayyor soliq tekshiruvining ahamiyatlari jihatlaridan biri shuki, uning yakunlari bo'yicha qo'shimcha soliqlar yig'imlar hisoblanishi amalga oshirilmaydi.

### Sayyor soliq tekshiruvi tushunchasi



1-rasm: Sayyor soliq tekshiruvi to'g'risida tushuncha<sup>11</sup>

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.

9 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

10 Панков В.Г. (2016) Налоги и налогообложение. Учебник и практикум. 5-е изд, перераб. и доп. – М.: "Издательство Юрайт", 206 с.

11 O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.



Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- soliq xavfini boshqarish tizimi orqali aniqlangan, soliq to'g'risidagi qonunchilikni buzish xavfi mavjudligi;
- jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliq yoxud valyuta to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari to'g'risidagi murojaatlari, shu jumladan, tovarlar va xizmatlarning narxini asossiz oshirib yuborish holatlari to'g'risida, yo'lovchilarni engil avtovoztransport vositalari bilan tashish bo'yicha noqonuniy tadbirdorlik faoliyati;
- ommaviy axborot vositalarida soliqqa va valyutaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinganda;
- o'tkazilayotgan kameral soliq tekshiruvini xolisona amalga oshirish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlar olish zarurati yuzaga kelganda;
- sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shuningdek, boshqa davlat organlari va tashkilotlardan soliq va valyutaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida dalolat beruvchi axborot tushganda;

Sayyor soliq tekshiruvining o'ziga xos xususiyatlardan biri shundaki, tekshiruv natijalari bo'yicha soliqlar va yig'imlar hisoblanmasada, uni o'tkazish davomida olingan hujjatlar va axborotlardan kameral soliq tekshiruvini o'tkazishda foydalanimish mumkin.

Sayyor soliq tekshiruvida soliq to'lovchi tomonidan tekshiruvni o'tkazuvchi mansabdar shaxsning hududi va binolariga kirishiga to'sqinlik qilingan taqdirda, tekshiruv o'tkazuvchi mansabdar shaxs tomonidan dalolat-noma tuziladi. Bunday dalolatnoma asosida soliq organi tekshirilayotgan shaxs to'g'risida o'zida mavjud bo'lgan ma'lumotlar yoki xuddi shunday soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini mustaqil tarzda aniqlashga haqli. Dalolatnoma sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdar shaxs va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadi. Tekshirilayotgan shaxs ko'rsatilgan dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda, mazkur dalolatnomaga bu haqida tegishli yozuv kiritiladi.

Sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha tekshiruvni o'tkazuvchi mansabdar shaxs tomonidan dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomaning bir nusxasi soliq to'lovchiga dalolatnoma bilan tanishib chiqib, uni olganligi va sanasi ko'rsatilgan imzosi orqali topshiriladi. Soliq to'lovchi dalolatnomani olishdan bosh tortganda, dalolatnomaga tegishli yozuv kiritiladi va uning bir nusxasi soliq to'lovchiga shaxsiy kabineti yoki pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi. Tekshiruvi dalolatnomasi soliq to'lovchiga topshirilgan kun yoki unga yuborilgan kun soliq tekshiruvi yakunlangan kun hisoblanadi. Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish uchun asos bo'lgan hujjatlarning nusxalari, tekshiruv davomida rasmiylashtirilgan hujjatlar, ekspert va mutaxassislar xulosalari, sayyor soliq tekshiruvi davomida olingan materiallar, shuningdek, sayyor soliq tekshiruvi doirasidagi harakatlarning bajarilishini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar tekshiruv dalolatnomasiga ilova qilinadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan tahlillardan kelib chiqib quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish soliq nazorati va soliq tekshiruvlari hamda soliq auditiga doir soliq kodeksidagi moddalarini ko'rib chiqish, tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish davlat tomonidan nazorat qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi;
- davlat soliq xizmati to'g'risidagi qonunchilik hamda soliq kodeksida soliq nazorati tushunchasi qoidalari ni bir-biriga muvofiqlashtirish zarur;
- ishlab chiqilayotgan tadbirdorlik kodeksida soliq nazorati bilan bog'liq ko'zda tutilgan qoidalar soliq kodeksi bilan tadbirdorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish bilan bog'liq qonun-hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilishini ta'minlash;
- sayyor soliq tekshiruvi hujjatlari va xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati bilan bog'liq axborotlarni tahlil qilish, soliq organlari profilaktik tadbirlari, xronometraj kuzatuvlari, soliq auditni hamda soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish tartiblarini qonunchilikda mustahkamlash;
- soliq to'lovchiga soliq auditni o'tkazilishi haqida xabarni boshlanishidan oldin berish va soliq auditni o'tkazish barcha tegishli ma'lumotlar ko'rsatilishi, soliq auditni o'tkazilayotgan davrda soliq hisobotlariga soliq to'lovchi tomonidan o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin emasligi soliq kodeksining tegishli moddalarida mustahkamlab qo'yish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risi" dagi PF-4947-son Farmoni. - www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5837-sonli farmoni, 2019-yil 26-sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldag'i PQ4389-son qaroriga 1-ilova "Soliq ma'muriyatichiligini takomillashtirish strategiyasi" ning 3-bob, 3.3-band. «Экономика и социум» №3(94)-2 2022 www.iupr.ru 259
4. Алиев А. М. Совершенствование механизма налогообложения / автореферат на соискание ученой степени к.э.н. - М.: 2011. - 21 с.
5. Савченко Н.Б. Совершенствование платежной дисциплины в механизме налогообложения предпринимательской деятельности / автореферат на соискание ученой степени к.э.н. - М.: 2011. - 27 с.
6. Шлянкевич С. В. Усиление контрольной функции налогов в современном механизме налогообложения / автореферат на соискание ученой степени к.э.н. - М.: 2012. - 29 с.
7. Алиев Х. Б. Развитие налогового контроля в РФ / автореферат на соискание ученой степени к.э.н. - М.: 2012. - 23 с.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

